



TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Darvishxojayev Xasan Abdulxakimovich

University of Business and Science "Pedagogika
va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

xasandarvishxojayev@gmail.com

Bekmirzayeva Rayxona Shavkatjon qizi

University of Business and Science Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy va nazariy yondashuvlari tahlil qilingan. Tanqidiy tafakkurning asosiy pedagogik va psixologik mexanizmlari, shuningdek innovatsion metodikalarning samaradorligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy tafakkur, ilmiy yondashuvlar, oliy ta'lim, kognitiv rivojlanish, pedagogik texnologiyalar.

Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining ustuvor va strategik vazifalaridan biri ekani ilmiy jihatdan asoslandi. Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, tanqidiy tafakkur shaxsning intellektual mustaqilligi, muammolarni chuqur anglash va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatini belgilab beruvchi muhim kognitiv sifat hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida o'rganilgan kognitiv, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan hamda konstruktivistik yondashuvlar talabalarning tahliliy fikrlashi, axborotga tanqidiy munosabati va ijodiy yechimlar ishlab chiqish salohiyatini oshirishda o'zaro uyg'un holda samara berishi aniqlandi. Ayniqsa, debat, keys-stadi, sokratik savol-javob, reflektiv yozma faoliyat va flipped klassrum kabi innovatsion metodikalar tanqidiy tafakkurni shakllantirishda yuqori pedagogik samara berishi ilmiy tahlillar orqali tasdiqlandi.



Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion va integrativ metodikalar qo'llanilganda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish samaradorligi yanada ortadi. Jumladan, **debat-ta'lim metodikasi** talabalarni muqobil fikrlarni tahlil qilish, dalillarni tizimlashtirish va o'z pozitsiyasini asoslab himoya qilishga o'rgatadi. Debatlar jarayonida talabalar axborot manbalarini tanqidiy baholash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Keys-stadi (Case study)ning kengaytirilgan modeli esa real yoki modellashtirilgan muammoli vaziyatlarni ko'p tomonlama tahlil qilishga yo'naltiriladi. Bu metodika talabalardan muammoni aniqlash, alternativ yechimlarni solishtirish va eng maqbul qarorni asoslashni talab qiladi, natijada ularning analitik va strategik fikrlashi rivojlanadi.

Sokratik savol-javob texnologiyasi tanqidiy tafakkurni chuqurlashtiruvchi samarali metodikalardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvda o'qituvchi tayyor javoblarni bermasdan, yo'naltiruvchi va chuqurlashtiruvchi savollar orqali talabalarni mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

SHuningdek, **refleksiv yozma faoliyat (academic reflection)** metodikasi talabalarning o'z bilish jarayonini tahlil qilish, o'z fikrini qayta ko'rib chiqish va xatolardan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Refleksiv esse va analitik kundaliklar tanqidiy tafakkurning metakognitiv jihatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Flipped klassrum (Flipped classroom) texnologiyasi ham tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda yangicha yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Unda nazariy material mustaqil o'rganilib, auditoriya mashg'ulotlari tahlil, bahs va muammo yechishga yo'naltiriladi. Bu esa talabalarning faol va ongli ishtirokini ta'minlaydi.

Mazkur yangicha metodikalardan tizimli va maqsadli foydalanish talabalarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini yaratishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot doirasida amalga



oshirilgan nazariy tahlillar talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni ko'p omilli va tizimli xususiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Ilmiy yondashuvlarni o'rganish natijasida tanqidiy tafakkurni shakllantirish samaradorligi, avvalo, ta'lim jarayonining mazmuni, qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar hamda o'qituvchi va talabaning faol o'zaro hamkorligiga bog'liq ekani aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli savollar, tahliliy topshiriqlar va refleksiv mashg'ulotlar qo'llanilgan hollarda talabalarning bilimga nisbatan ongli munosabati shakllanib, ular axborotni tanqidiy qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'layotgani kuzatildi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv asosida olib borilgan tahlillar loyiha ishlari, keys-tahlillar va tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlar talabalarning amaliy fikrlashini rivojlantirishda yuqori samara berishi mumkinligini ko'rsatdi. Bunday faoliyat jarayonida talabalar muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarni baholash va asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shaxsga yo'naltirilgan va konstruktivistik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim muhitida talabalarning fikr bildirish faolligi oshishi, muloqot madaniyati rivojlanishi va o'z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyatlari mustahkamlanishi aniqlandi. Bahs-munozaralar, jamoaviy tahlil va hamkorlikda o'qitish usullari talabalarning tanqidiy tafakkurini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bir tomonlama ta'sir orqali emas, balki turli ilmiy yondashuvlarni integratsiya qilish orqali yuqori samara beradi. Ayniqsa, kognitiv, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning



uyg'un qo'llanilishi talabalarning intellektual mustaqilligi va ijodiy fikrlash salohiyatini oshiradi.

Olingan natijalar pedagogik amaliyot uchun quyidagi muhim xulosalarni ilgari suradi: ta'lim jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizim yaratish zarur; o'qitish mazmunida tahliliy va refleksiv topshiriqlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq; o'qituvchining rahbar va fasilitator sifatidagi roli kuchaytirilishi talab etiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish zamonaviy ta'lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Olingan xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalari va fan dasturlariga tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan tahliliy, muammoli va refleksiv topshiriqlarni tizimli ravishda kiritish;
2. Ta'lim jarayonida interaktiv, muammoli va tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish usullari ulushini oshirish;
3. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanish tizimida tanqidiy tafakkurni shakllantirish metodikasiga oid maxsus trening va seminarlarni tashkil etish;
4. Talabalarning tanqidiy tafakkur darajasini baholash uchun kompleks diagnostik vositalar (test, kuzatuv, anketa, refleksiya)dan foydalanish;
5. Ta'lim muassasalarida erkin fikr almashinuvi, bahs-munozara va muloqotga asoslangan akademik muhitni shakllantirish.

Talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining ta'lim jarayonidagi roli an'anaviy bilim yetkazuvchidan talabalar faolligini



rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi va fasilitator sifatidagi faol sub'ektga aylanishi zarur. Bunday pedagogik pozitsiya talabalarning ta'lim jarayonida mustaqil fikrlaydigan va javobgar sub'ekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология.-Т.: “Университет”, 2006.
2. Musurmonova O. Ta'lim jarayonida talabalar tafakkurini rivojlantirish. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2012.
4. A.A. Rashidov - [A MODEL FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' COMPETENCEIN DESIGNING LEARNING-COGNITIVE ACTIVITY](#), SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL, 2025. 146-152s
5. A RASHIDOV - [O'QUV MASHG'ULOTLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYA VA METODLAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISH](#), O'zMU xabarlari 130 (2181-7324), 135-137bb.
6. Rashidov Abduaziz Abduvali ugl i- [COMPETENCE IN DESIGNING EDUCATIONAL ACTIVITIES FOR FUTURE TEACHERS DEVELOPMENT MODEL](#), LondonInternationalMonthly Conferenceon Multidisciplinary ResearchandInnovation WORLD SCIENCE PUBLISHINGLTD,LONDON , 2025/10/8, 147-150 bb.



7. A Rashidov . BOLAJAK OQITUVCHILARNI DARS MASHGULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDA LOYIHA METODINING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2023